

SHARQ SHE'RIYATINING YORQIN QUYOSHI

Masharipova Dildora Gulomovna

Urdu 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada ruboiy janri va uning o'ziga xos xususiyatlari, shoirlarimiz ijodidagi salmog'i to'g'risida fikr yuritiladi va namunalar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ruboiy, tasavvuf, adab, Olloh, tariqat, may, orif, Qur'on, so'fiy, ishq, axram va axrab, Ka'ba, sha'riyat, ma'rifat, haqiqat.*

Ruboiy yaratish san'ati tomchida dengiz, uchqunda quyoshni hosil qilish san'ati deyilgan azaldan. Darhaqiqat, huddi shunday emasmi?! Ruboiy eng avvalo ana shu jihati bilan bizning she'riyatimizning eng dovrug' qozongan shakliga aylangandir. "Islim qomusi"da ruboiy sharq she'riyatining "Vohid quyoshi" deb ta'rif beriladi. Ruboiyning vohid quyoshi darajasiga ko'tarilishi, bizning fikrlashimizcha, bu janr ishqi, falsafiy, diniy va tasavvufiy g'oyalarning teran ifodalanishi bilan ham bog'liqdir. Ma'lumki, o'zlarining axloqiy, ma'rufiy va ilohiy qarashlarini targ'ib qilmoq uchun she'rning har xil turlaridan foydalangan orif shoirlarning e'tibori ko'proq ruboiyga qaratilgan bo'lgan. Masalan, Faririddin Attorning birgina "Muxtornoma"sida tasavvufiy ma'nolar talqin qilingan besh mingdan ortiq ruboiy o'rin olganligini bilamiz. Ulug' Jaloliddin Rumiy devonidagi bir yarim mingga yaqin ruboiyning aksariyati yuksak xayolning mahsulidir. Najmiddin Kubro, Abdulla Ansoriy, Mirzo Bedil singari buyuk shoirlarning to'rtliklarida ham asosan tasavvuf haqiqatlari ko'rsatib berilgan.

Tasavvuf nima? Tasavvuf. Birinchi galda ahloqning pokligidir. Shuning uchun uni ahloqning husni deb bilishgan. Tasavvufga yuz burgan shoirlarning deyarli hammasi komil axloq targ'ibotchilari hisoblanadi. Ularning fikricha, adab- xulqni go'zallashtirmoq, nafsi zohir va nafsi botinni tarbiya qilishdir. Tasavvuf ahlining anglashiga ko'ra, adab to'rtga bo'linadi.

Shariyat- adabi. Bu- payg'ambar shariyati va sunnatiga amal etmoq. Tariqat adabi- bu biror tariqatga bog'lanib, uning odob va arkonini o'rganib shu bo'yicha harakat qilmoq. Ma'rifat odobi. Bu nafsi ammorani mag'lub etib, ilmi ilohiyini o'zlashtirish. Haqiqat odobi. Bu Olloh odobi bilan yashab, vahdat mayidan qonmoqdir. Ruboiynavislarning piri hisoblanmish Umar Xayyom:

May asli nadir- bodaparastlar bilgay,
Qandoq qilib ul bag'ri qafaslar bilgay?
G'ofil kishi g'aflatda ekan, ma'zurdir,
Bu zavqu surur gashtini mastlar bilgay,-

deb, ilohiy ishq zavqu sururidan mast bodaparatlarni nazarda tutgan edi. Xayyom "qadahi"dagi "may"ni biz qanday qilib tushunmadik, u haqida tog'ri xulosalar chiqarmadik? So'zlash qiyin va uyat.

So'fiylarning tushunchasiga ilm- aqlga, irfon tuyg'ularga asoslanadi. Orif esa irfaon sohibi. Orif bo'lmoq uchun kitobiy bilimlardan yuksalmoq lozim. Orif Olloh tomonidan baxsh etilgan hisoblanib, uning mavjudligini idrok etadi va mavhum borlig'idan kechib, tangrining borlig'iga birikadi. Yunus Emro orifni ta'riflab shunday ataydi:

Orif anga deyarlar, ul qon bo'lur,
Ma'rifat olaminda bir ummon bo'lur...
Haq deyajak nafasi Haqdin kelur,
So'ylajak ko'zlari Qur'on bo'lur.

Abdullo Ansoriy, Hakim Sanoiy, Shayx Najmiddin Kubro, Mavlono Jaloliddin Rumiy ruboiylarini o'qigan she'rxon " Haq deyajak nafasi Haqdin" taraladigan oshiqqa duch keladi. U haqiqatdan ham ma'rifat olamida bir ummondirki, bu ummonda haqiqiy ishq zavqi va ziyosi mavj uradi. Ma'lumki, vujudi mutloq oshiqlari Tangri taoloni haqiqiy va abadiy borliq deb bilishgan. Tangri esa bittadir. Shuning uchun ham unga "Vahdadi vujud" nomi berilgan. Ya'ni u borliqning birligi hisoblanadi. Koinotdagi xilma-xillik zohiriy va o'tkinchi farqlanishlardir. Shu bois borliq olamni haq sifatlarini tajallisidan iborat deb bilish lozim bo'ladi. Olloh -, vujud, mavjudot uning ko'rinishidir. Sanoiyning quyidagi ruboiysida shu mohiyat aks ettirilgan:

Ko'rganmi birovkim, aql ila to'lgay ishq,
Rahbar agar aqlu xush esa, so'lgay ishq.
Oshiqqa shu ishq yo'lida o'lmoq afzal,
Ey, xoja, bilurmisen, nechuk bo'lgay ishq?

Ishq yo'lida o'lmoqni afzal ko'rgan oshiqlar bashariy sifatlardan, ilohiy sifatlarga ko'tarilgankongil kishilaridir. Ular uchun shariyat- so'z, tariqat-yo'l. ma'rifat-ishq bo'lsa, haqiqat – bu, hol. Hol chin oshiq qalbini o'rtagan farah, sevinch qadar, hayajonni gavalantiradi. Hol sohiblari ishq tuyg'usida holdan holga, hayronlikdan hayronlikka, hayratdan hayratga o'tishadi. Ularning Haq nuri jamolini jilvalantiradigan ko'zgu bu – dil. Huddi shunday sababga ko'ra haqparastlarning dili Ka'badan ham ustundir. Bu haqda Abdulla Ansoriy shunday yozadi:

Haq yo'lida ikki Ka'ba bo'lmish hosil,
Bir- Ka'bayi suvrat esa, bir Ka'bayi dil.
Sen sayla va dillarni ziyorat ayla'
Ming Ka'badan ortiqroq emishdir bir dil.

Jaloliddin Rumiy bir ruboiysida "nafs itini" tavba bilan zanjirband etish to'g'risida aytib:

Haq yerda ko'rib, vale ul ko'ppak,
Zanjirni uzar bo'lsa, ne tadbir aylay?-

deydi. So'fiylar insonni tog'ri va ezgu yo'llardan ozdiruvchi, barcha tubanliklarga chorlovchi hirslarni nafsiga nisbat berishgan. Ularning aqidasi nafs- zolim, shum, chirkin, makkor.

Zotan, Zahiriddin Muhammad, Bobur ta'kidlab o'tganlaridek, "Axram bila axrab avzonining ijtimoi'ida she'r nomavzun bo'lmas"ligi shundoq sezilib turadi.

Jaloliddin Rumiy bir ruboiysida "meni ona tug'magan, ishq tuqqan. Shu volidaga ming - ming rahmatu ofarin bo'lsin",- deydi. Ishqdan tug'ilgan va ishq dardi bilan ovora bo'lib yashab o'tgan ko'ngilda Haqning sirlari ochiladi. Ruboiylar ilohiy sirlarni idrok qilish, dunyoning abadiyligi, shu abadiylik bag'rida insonning ruhi va ruhiyati ham o'tkinchi emasligini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 333 ruboiy (Forsiydan : Jamol Kamol) -Toshkent.1991.
2. D.Bobojanov, M.Abdurasulov "Abadiyat farzandlari" \ Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti. Xorazm- 2009.
3. Shayx Najmiddin Kubro. Jamoling menga bas. Ruboiylar (Forsiydan M.Abdulhakim tarjimasi).- Toshkent, 1994.